


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib



## Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahri bo'yicha 2021-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **3 868,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar oyiga nisbatan **8,3 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 295,4** mlrd. so'mni, o'zgarish sur'ati (**135,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 514,7** mlrd. so'mni (**98,7 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **58,1** mlrd. so'mni (**94,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, foizda



## O'sish (o'zgarish) sur'ati, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent shahri bo'yicha 2021-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **3 868,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar oylariga nisbatan **8,3%** ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha tumanida chakana savdo aylanmasining o'sishi kuzatildi. Yirik biznes tarkibida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.




### ENG YUQORI ULUSH

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Yunusobod tumani **15,7 %** ulush bilan **608,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mirzo Ulug'bek tumani **5,7 %** ulush bilan **221,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Toshkent shahri      Uchtepa      Bektemir      Yunusobod      Mirzo Ulug'bek      Mirobod      Shayxontohur      Olmazor      Sirg'ali      Yakkasaroy      Yashnobod      Chilonzor



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi umumiy savdo hajmining **66,5** foizini tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining asosiy ulushi Bektemir (95,1 foiz), Uchtepa (94,5 foiz), Mirzo Ulug'bek (80,3%), Shayxontohur (71,6 %) Olmazor (81,2 %), va Yashnobod (75,2 %) tumanlarida kuzatildi.






**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yilning yanvar oyiga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yunusobod (154,1 %), Olmazor (124,6%), Mirobod (105,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,  
foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>3 868,3</b>	<b>103,6</b>	<b>1 295,4</b>	<b>135,3</b>	<b>2 572,8</b>	<b>98,5</b>
Uchtepa	426,5	102,0	29,3	96,8	397,2	100,6
Bektemir	280,1	101,1	20,3	123,3	259,9	98,6
Yunusobod	608,0	154,4	346,1	381,3	261,9	75,2
Mirzo Ulug'bek	221,2	103,1	47,5	91,7	173,7	100,8
Mirobod	247,8	105,3	119,9	111,2	128,0	85,6
Shayxontohur	409,4	103,9	120,4	84,7	289,1	102,4
Olmazor	242,2	124,6	86,1	77,5	156,1	98,9
Sirg'ali	275,8	102,6	100,4	96,0	175,4	102,6
Yakkasaroy	336,9	101,5	156,5	114,5	180,4	88,7
Yashnobod	252,4	100,8	71,5	121,9	180,9	96,1
Chilonzor	567,9	96,0	197,5	82,2	370,3	131,5

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar



Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



Chakana tovar ayirboshlash tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash hajmi **35,3** foizga o'sdi va **1 295,4** mlrd so'mga yetdi, bu uning umumiy hajmining **33,5%** ni tashkil etadi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **2 572,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,7%** ga kamaydi. Chakana tovar ayirboshlashda ushbu sohaning shahardagi ulushi **66,5%** ga yetdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa hududlariga nisbatan eng katta ulushini Uchtepa (93,1%), Bektemir (92,8%), Mirzo Ulug'bek (78,5%), Yashnobod (71,7%), Shayxontoxur (70,6%) va Olmazor (64,5%) tumanlari tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash ulushi umumiy sotishning 33,5% ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Yunusobod (56,9%), Mirobod (48,4%) Sirg'ali (36,4%), va Olmazor (35,5%) tumanlarida kuzatildi.



## TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Toshkent shahrida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yil yanvar oyida o'rtacha **1 474,0** ming so'mni tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zgarishsiz qoldi).


Ushbu ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan Bektemir (7 891,5 ming so'm), Yakkasaroy (2 800,3 ming so'm) va Chilonzor (2 232,1 ming so'm) tumanlarida ko'proq qayd etildi.



	Hajm, ming so'm	2020-yil yanvar-oyiga nisbatan, % da
Toshkent sh.	1 474,0	3,8
Uchtepa	1 548,7	36,3
Bektemir	7 891,5	281,7
Yunusobod	1 757,3	28,9
Mirzo Ulug'bek	789,2	35,7
Mirobod	1 763,9	71,2
Shayxontohur	1 188,5	29,0
Olmazor	652,2	26,9
Sirg'ali	1 340,1	48,6
Yakkasaroy	2 800,3	83,1
Yashnobod	1 008,2	40,0
Chilonzor	2 232,1	39,3


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Jismoniy shaxslar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, uyushmagan savdo hajmi 2021-yil yanvar oyida **58,1** mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,6** % ga kamaydi. Jumladan, dehqon bozorlarida savdo aylanmasi **53,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **100,6**) chorvachilik bozorida savdo aylanmasi **3,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **101,7** %) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI**

2021-yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **53,8** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **3,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



\* Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo‘shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so‘m	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>58,1</b>	<b>65,4</b>	<b>53,8</b>	<b>100,6</b>	<b>3,4</b>	<b>101,7</b>
<i>tumanlar:</i>						
<b>Uchtepa</b>	3,6	59,8	3,6	59,8	-	-
<b>Bektemir</b>	11,8	130,6	11,8	130,6	2,3	49,6
<b>Yunusobod</b>	7,6	106,8	7,6	106,8	-	-
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	3,8	59,2	3,8	59,2	-	-
<b>Mirobod</b>	1,5	42,9	1,5	42,9	-	-
<b>Shayxontohur</b>	3,1	62,7	3,1	62,7	-	-
<b>Olmazor</b>	1,1	23,5	1,1	23,5	0,13	50,4
<b>Sirg‘ali</b>	2,5	76,2	2,5	76,2	-	-
<b>Yakkasaroy</b>	2,1	46,5	2,1	46,5	-	-
<b>Yashnobod</b>	7,3	122,2	7,3	122,2	-	-
<b>Chilonzor</b>	13,6	231,7	13,6	231,7	-	-

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



1,1  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



20,3  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



2,8  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

5,2  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



4,7  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

0,8  
mlrd. so'm



**Tuxum**

6,5  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

0,1 mlrd.  
so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-xashaklar**

0,3  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

1,0  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

11,0  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

2021-yil yanvar oyida Toshkent shahrining barcha tumanlaridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (shaxsiy yordamchi tomorqalarida yetishtirilgan) sotish bilan shug'ullanuvchi shaxslar bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo turining aylanmasi **53,8** milliard so'mni tashkil etdi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021-yil yanvar oyida Toshkent shahrining barcha tumanlarida parrandachilik va chorva mollarini sotish bilan shug'ullanadiganlar (shaxsiy fermalarda saqlanadigan) bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo aylanmasi **3 354,4** million so'mni tashkil etdi. Turli yoshdagi qoramollarni sotish **2 367,7** mln. so'mga, qo'y va echkilar - **808,3** mln. so'mga, otlar - **178,0** mln. so'mga, qushlar - **0,4** mln so'mga yetdi.






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATI**

2021-yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **4,0 %** ni tashkil etib, **209,6** mlrd so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,1 %** ga kamaydi, ularning **75,8** foizi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.


Umumiy ovqatlanish korxonolari savdo aylanmasining o'sish sur'ati, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>209,6</b>	<b>101,1</b>	<b>50,7</b>	<b>111,9</b>	<b>148,3</b>	<b>98,2</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	8,8	99,4	0,5	140,7	7,4	97,8
Bektemir	5,1	114,5	1,4	161,0	1,7	112,6
Yunusobod	25,0	70,3	5,5	59,9	18,3	73,9
Mirzo Ulug'bek	22,3	99,7	1,3	127,4	19,5	98,6
Mirobod	19,5	100,7	3,1	193,4	16,0	92,4
Shayxontohur	44,8	169,5	28,9	280,1	15,2	97,9
Olmazor	16,6	119,3	1,8	6 659,1	14,0	107,5
Sirg'ali	11,9	57,3	3,1	21,7	8,2	142,2
Yakkasaroy	21,4	100,4	1,9	49,8	18,7	112,3
Yashnobod	11,7	83,1	0,5	35,7	10,2	87,1
Chilonzor	22,6	111,4	2,9	114,0	19,0	110,1


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar oyida ulgurji savdo hajmi **5 171,7** mlrd so'mga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish **14,8 %** ni tashkil etdi. Kichik biznesning ulgurji savdo aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **3 698,3** mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,9 %** ga kamaydi. Toshkent shahridagi ulgurji savdo aylanmasida ushbu sektorning ulushi **71,5** ni tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATI**


O'tgan yilga nisbatan yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori o'sish sur'ati Yashnobod (180,2%), Chilonzor (134,7%) va Yunusobod (114,0 %) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda**




	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	5 171,7	114,8	1 473,4	224,7	3 698,3	96,1
Uchtepa	297,7	98,0	14,7	120,1	283,1	97,0
Bektemir	98,4	103,9	10,2	900,9	88,2	94,2
Yunusobod	411,8	114,0	85,3	230,0	326,6	100,7
Mirzo Ulug'bek	477,2	107,1	63,7	216,3	413,5	99,4
Mirobod	547,6	107,0	89,7	195,0	457,9	98,3
Shayxontohur	336,6	104,6	62,1	757,5	274,4	87,5
Olmazor	730,8	114,6	270,1	161,9	460,7	97,8
Sirg'ali	314,0	93,3	35,2	50,3	278,8	104,5
Yakkasaroy	510,5	90,2	146,3	87,7	364,2	91,2
Yashnobod	801,2	180,2	445,2	948,3	356,0	89,5
Chilonzor	645,9	134,7	250,8	352,8	395,1	96,8

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Toshkent shahri      Uchtepa      Bektemir      Yunusobod      Mirzo Ulug`bek      Mirobod      Shayxontohur      Olmazor      Sirg'ali      Yakkasaroy      Yashnobod      Chilonzor



2020-yil yanvar

2020-yil yanvar

Hisobot davrida ulgurji savdo aylanmasi tarkibida kichik biznes aylanmasining ulushi umumiy sotishning **71,5 %** ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Uchtepa (95,1 %), Bektemir (89,6%), Shayxontohur (81,5 %), Mirobod (83,6 %) va Yunusobod (79,3 %) tumanlarida kuzatildi.

